

O‘QUVCHI YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Voxidova Nigoraxon Yakubjonovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani

288- maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning psixologik usullari, milliy qadriyatlarning yoshlar ongiga ta’siri hamda ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda oila, maktab va jamiyat hamkorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, psixologik usullar, milliy qadriyatlar, motivatsiya, ma’naviyat, oila, ta’lim

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik insonning o‘z yurtiga muhabbat, sadoqat va mas’uliyat hissi bilan yashashida namoyon bo‘ladi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni avvalo oiladan boshlanadi. Ota-onaning milliy qadriyatlarga hurmati va Vatanga bo‘lgan munosabati farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir qiladi.

Psixologik jihatdan vatanparvarlik hissi bolalik va o‘smirlik davrida shakllanadi. Bu davrda yoshlar ma’naviy qadriyatlarni tez qabul qiladilar va ularga taqlid qilishga moyil bo‘ladilar.

Maktab ta’limi ham vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Tarix, adabiyot va ma’naviyat darslari orqali yoshlarning milliy ongini rivojlantirish mumkin. Vatanparvarlikni shakllantirishning muhim psixologik usullaridan biri — motivatsiyadir. Yoshlarda Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish istagini uyg‘otish ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, tarixiy qahramonlar va milliy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlar yoshlarning milliy g'urur hissini mustahkamlaydi. Psixologik treninglar, davra suhbatlari va ma'naviy tadbirlar ham vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Jamoaviy faoliyat va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish yoshlarda mas'uliyat va hamjihatlik hissini rivojlantiradi. Bu esa Vatanga foydali bo'lish intilishini kuchaytiradi. O'qituvchi va maktab psixologining shaxsiy namunalari ham tarbiyaviy jarayonda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar kattalarning xatti-harakatidan o'rnak oladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ham vatanparvarlik tarbiyasida muhimdir. Ijobiy va ma'rifiy kontentlar yoshlarning dunyoqarashini boyitadi.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar yoshlarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirishda vatanparvarlik fenomeniga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Vatanparvarlik — shunchaki hududiy daxldorlik hissi emas, balki shaxsning barqaror ijtimoiy-psixologik xususiyati, uning milliy qadriyatlar va davlat manfaatlari bilan identifikatsiyalashuv darajasidir. Shuni alohida takidlash kerakki kelajakda ko'plab o'g'il qizlar aynan harbiy sohada vatanni himoya qilishi sababli ularda ruhiy tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Ummy ruhiy tayyorgarlik, harbiy xizmatchilarda harbiy faoliyatdagi vazifalarni samarali bajarishiga kerak bo'lgan yuksak vatanparvarlikni, o'z kuchiga va dushman ustidan g'alabaga ishonchni, jangovar faollikni, o'z jonini fido qilishga tayyorlikni, ma'lum sabablarni, maqsadga intiluvchanlikni, shuningdek, intellektual (aqliy, ma'naviy), his-tuyg'uga oid, irodaviy va boshqa sifatlarni (fazilatlarini) shakllantirish orqali erishiladi.

Yoshlar psixologiyasida vatanparvarlik tuyg'usi shaxsning "Men-konsepsiyasi" tarkibiga kiruvchi murakkab ijtimoiy ustanovka hisoblanadi. Ushbu tuyg'uni rivojlantirish jarayoni pedagogik ta'sirdan ko'ra ko'proq psixologik mexanizmlarga (identifikatsiya, internalizatsiya, emotsional bog'liqlik) tayanadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonni psixodiagnostika qilmasdan turib, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash imkonsizdir. Vatanparvarlikni diagnostika qilishdan avval uning tarkibiy qismlarini ilmiy

klassifikatsiyalash lozim. Psixologiyada vatanparvarlik quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq tizimdan iborat deb qaraladi:

1.Kognitiv (bilish) darajasi: Vatan tarixi, tili, madaniyati, qonunlari va davlat ramzlari haqidagi chuqur bilimlar majmuasi. Bu shaxsning intellektual salohiyati bilan bog‘liq.

2.Emotsional darajasi: Vatanga nisbatan muhabbat, faxr, g‘urur, daxldorlik va mas'uliyat hissi. Bu daraja diagnostika qilishda eng murakkab qism hisoblanadi.

3.Xulq-atvor darajasi: Vatan manfaati uchun faol harakat qilishga tayyorlik, fidoyilik va fuqarolik pozitsiyasining amalda namoyon bo‘lishi.

Yoshlardagi vatanparvarlik darajasini o‘lchashda standartlashtirilgan testlar va proyektiv usullar kombinatsiyasidan foydalaniladi. Qadriyatlar iyerarxiyasini aniqlash (M. Rokich metodikasi) Ushbu metodika orqali yoshlarning terminal va instrumental qadriyatlari tizimida "Vatan ravnaqi", "Milliy g‘urur" va "Ijtimoiy faollik" kabi tushunchalar nechanchi o‘rinda turishi aniqlanadi. Agar "shaxsiy qulaylik" birinchi o‘rinda, "ijtimoiy burch" esa oxirgi o‘rinlarda bo‘lsa, bu vatanparvarlik tarbiyasidagi psixologik bo‘shliqni ko‘rsatadi

Vatanparvarlikni shakllantirish samaradorligi bu — pedagogik tadbirlarning soni emas, balki shaxs ichki dunyosidagi sifat o‘zgarishlaridir. Samaradorlikni baholashda quyidagi kriteriyalarga e’tibor qaratiladi identifikatsiya jarayonining barqarorligi, samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichi yoshlarning o‘zini milliy va davlat guruhi bilan qanchalik kuchli bog‘lashidir (Milliy identifikatsiya). E.G‘oziyev ta’kidlaganidek, yoshlarda "Biz" konsepsiyasining "Men" konsepsiyasidan ustun turishi vatanparvarlikning eng yuqori psixologik nuqtasidir. Ijtimoiy faollik va motivatsiya vatanparvarlikning samaradorligi yoshlarning volontyorlik harakatlarida ishtiroki, armiyada xizmat qilishga tayyorligi va davlat ramzlariga bo‘lgan emotsional munosabatida ko‘rinadi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali shakllangan vatanparvarlik tuyg‘usi stressli vaziyatlarda (masalan, axborot xurujlari davrida) shaxsning psixologik chidamliligini oshiradi

Psixodiagnostika natijalari past bo‘lgan guruhlar bilan ishlashda quyidagi texnologiyalardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan:

1. Sotsial-psixologik treninglar: Guruhda ishlash orqali jamoaviy mas'uliyatni shakllantirish.

2. Kognitiv modellashtirish: Tarixiy qahramonlarning qaror qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilish.

3. Media-psixologiya: Ijobiy milliy kontent orqali emotsional sohaga ta'sir o'tkazish. Psixodiagnostika - bu yoshlar qalbining "rentgeni" bo'lib, u tarbiyadagi "ko'r-ko'rona" harakat qilishdan saqlaydi va maqsadli natijaga erishishni ta'minlashga yordam beradi quydagi jadval ko'rinishida taxlil qilaman.

Vatanparvarlikni boshqarishda psixodiagnostika uni o'lchov emas, balki tarbiya jarayonini ilmiy boshqarish mexanizmidir. Diagnostika axborot resurslari yordamida yoshlarning psixologik komponentlarini korrektirovka qilish va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Tadqiqot loyihasi taklif qilingan sotsial-psixologik treninglar, kognitiv modellashtirish va media-psixologiya texnologiyalari yoshlarda milliy identifikatsiyani sifatda yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Bu metodikalarni tabiiy vatanni sevishga, balki qanday mafkuraviy yordamga muhtojlar o'zining mustahkam jismoniy pozitsiyasini saqlashga o'rgatadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish murakkab va ko'p bosqichli psixologik jarayon bo'lib, u muntazam ravishda psixodiagnostika qilinishini talab etadi. Diagnostika faqatgina holatni aniqlash emas, balki tarbiyaviy ishlarning samaradorligini prognoz qilish vositasidir. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik samaradorligi shaxsning kognitiv bilimlari uning emotsional kechinmalari bilan uyg'unlashgan taqdirdagina yuqori bo'ladi. Diagnostika metodikalari yoshlarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga (o'spirinlik, yoshlik davri) mos ravishda differentsiallashtirilgan bo'lishi lozim. Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida yoshlar vatanparvarligi — bu davlat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotning psixologik kafolatidir. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, aholining 55 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlarimizning qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda, ilmiy asoslangan psixodiagnostika va samaradorlikni baholash tizimi har qanday mafkuraviy xurujlarga qarshi "ma'naviy qalqon" vazifasini o'taydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Psixologik yondashuv, milliy qadriyatlar va sog'lom tarbiya orqali yosh avlodda Vatanga muhabbat va sadoqat hissini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev EG'. Umumiy psixologiya: Darslik / EG'. G'oziyev. – Toshkent: Universitet, 2002. – 305 b.
2. Jalilova SX Umumiy psixodiagnostika: O'quv qo'llanma / SX Jalilova. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 260 b.
3. Leontyev AN Faoliyat. Ong. Shaxs / AN Leontyev. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.
4. Vygotskiy LS Inson taraqqiyoti psixologiyasi / LS Vygotskiy. – Moskva: Izd-vo Smisl; Eksmo, 2005. – 1136 b.
5. Rokeach M. Inson qadriyatlarining tabiati / M. Rokeach. – Nyu-York: Free Press, 1973. – 438 b.
6. Nguyen TH Vetnamda ta'lim va vatanparvarlik: Psixologik nuqtai nazarlar / TH Nguyen. – Xanoy: Xanoy universiteti nashriyoti, 2021. – 215 b.